



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA FITONIM KOMPONENTLI  
O‘XSHATISHLAR TAHLILI  
ANALYSIS OF PHYTONYMIC COMPONENT ANALOGIES IN THE WORK  
“KUTADGU BILIG”

**Odilova Dilobar Shavkatjon qizi**

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [diloshodilova@gmail.com](mailto:diloshodilova@gmail.com)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./JFFB1073](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./JFFB1073)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi o‘xshatishlarda fitonimlarning ishtiroki hamda kognitiv-semantik xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Fitonim komponentli o‘xshatishlar mohiyati misollar orqali batafsil ochib beriladi. Ta’kidlash o‘rinliki, “Qutadg‘u bilig” asaridagi o‘simlik olamiga oid nomlar tahlili eski turkiy tilning leksik boyligini kengroq yoritishga hamda ularning o‘xshatish san’atini hosil qilishdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** fitonim, o‘xshatish, turkiy til, uslubiy vazifa, mantiqiy kategoriya, etalon, o‘xshatish vositasi.

**Annotation.** This article is devoted to the participation of phytonyms in similes found in “Qutadg‘u bilig” by Yusuf Xos Hojib, as well as to their cognitive-semantic characteristics. Phytonym-based similes are analyzed through illustrative examples. It should be emphasized that examining plant-related names in “Qutadg‘u bilig” helps to provide a broader account of the lexical richness of Old Turkic and to determine their role in shaping the art of simile.

**Keywords:** phytonym, simile, turkic language, stylistic function, logical category, standard, means of comparison.

Insonning dunyoni bilishida o‘xshatish-qiyoslash san’ati benihoya katta o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchaning o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida uchraydi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi. Mazkur kategoriyaning lisoniylashuvi muayyan strukturada namoyon bo‘ladi, til sohibining olamni, dunyoni anglashida esa o‘rni beqiyos. Qiyosning ohorliligi ko‘p hollarda tanlangan etalonlarga, qisman o‘xshatish vositalariga bog‘liq bo‘ladi [Умарова, 2021:135].

Mumtoz adabiyotning nodir namunasi hisoblangan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari o‘zining leksikasi, uslubi hamda badiiy-ifoda imkoniyatlarining kengligi bilan ajralib turadi. Ushbu asarda turkiy xalqlarning turmush tarzi va dunyoqarashining barcha sohalariga oid bo‘lgan so‘z va iboralarni uchratish mumkin. Ular orasida fitonimlar alohida o‘rin tutadi. Fitonimlar tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni ifodalovchi lingvomadaniy belgilar hisoblanadi. Bu borada Z.Jalilova quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi:

Dunyodagi barcha xalqlar tilida o‘simlik, gul, daraxt nav xillarini ifodalovchi lisoniy, onomastik birliklar mavjud bo‘lib, muayyan yaxlit leksik tizimni hosil qiladi. Ular bevosita o‘sha xalq va millat dehqonchilik madaniyatining lisoniy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslikda fitonimlar degan umumiy nom bilan yuritiluvchi bunday leksik birliklar nutq jarayonida nominativ, kommunikativ, uslubiy vazifa kasb etadi [Jalilova, 2024:131].

Tilshunos F.Usmonovning fikricha, inson (millat) o‘xshatishlar uchun o‘z stereotiplaridan kelib chiqib, avvalo, kundalik duch kelinadigan, o‘ziga yaxshi tanish va hayotida ahamiyatli bo‘lgan narsalardan etalon tanlaydi. Ushbu jarayon ularning milliy-madaniy konnotatsiyalari bilan shartlanganlik kasb etadi [Усманов, 2020:91]. “Qutadg‘u bilig” asarida turkiy tilning tasviriy imkoniyatlari juda keng qamrovda ochib berilgan. Xususan, “qarilik” faslini tasvirlashda muallif fitonim asosidagi o‘xshatishlardan keng foydalangan. Yoshlikni, navqironlikni ifodalab kelgan “niholdek bo‘y”, “qayindek bo‘y”, “bahorgi maysaday soch” kabi o‘xshatishlar insondagi keksayish jarayonini tasvirlashda kontrast fon vazifasini bajargan.

*Tadu artadi kör kuči eksudi*

*Qağil -teg koni bođ egildi qudi*

*Mijozi buzildi, ko‘r, kuchi kamaydi,*

*Niholdek to‘g‘ri bo‘y quyi egildi [Каримов, 1971: 211].*

Ushbu o‘xshatish eng qadimiy tashbehlardan biri bo‘lib, hozirgi kunda ham faol qo‘llaniladi. Ilgari nihol kabi tik bo‘lgan qomat vaqt o‘tishi bilan quyi egiladi. Bu o‘xshatish orqali muallif umrning o‘tkinchiligiga, vaqtning g‘animatligiga ishora qiladi. Xuddi shunday holat “qayindek” o‘xshatishi orqali ham ifodalanadi.

*Qayin-teg bodüm erdi oq-teg köni tuz*

*Ya-teg egri böldi egildim tönittim*

*Qayindek bo‘yim o‘qdek to‘g‘ri rost edi,*

*Endi yoydek egri bo‘ldi, egildim, munkaydim [Каримов, 1971: 837].*

Quyidagi baytda “so‘z” gulga qiyos qilinadi. O‘xshatish asosi sifatida gullardagi “rang-baranglik” semasi olinadi. Ya‘ni, hushyor, ruhan uyg‘oq kishining so‘zlari ham gullar singari turfa, ma‘no-mazmunga boy bo‘lishi ta‘kidlanmoqda.

*Neku ter ešit emdi köñli udüğ  
Sözi kor çeček-teg tumen tu boduğ  
Endi ko 'ngli uyg 'oq, ya 'ni hushyor kishi nima deydi, eshitgin,  
Bu kishining so 'zlarini ko 'r, ular gul kabi turli rangdadir* [Каримов, 1971:  
125].

Asardagi fitonim asosidagi o'xshatishlarning yana bir vazifasi mavhum tushunchalarni aniqlashtirish hisoblanadi. Bunda o'simlik dunyosiga xos belgilar qiyoslashning mezoni sifatida xizmat qiladi. Masalan:

*Köçüt-teg bolur qut bolur ham tozi  
Köñul qusqisi ham aniñ yildizi  
Qut ko 'chat kabidir, uning (asosi) ham bo 'ladi,  
Ko 'ngilning yuvoshligi esa uning ildizidir* [Каримов, 1971: 297].

Baytda “qut” (baxt, saodat) ko'chatga o'xshatiladi. Uning ildizi tuproq ostida, ko'rinmaydigan joyda bo'lsa ham butun daraxtni ushlab turadi, ozuqa bilan ta'minlaydi. Baxt-saodatga erishish uchun ham insondan halimlik, ya'ni muloyimlik talab qilinadi. Inson o'z baxtni saqlab qolishni istasa ko'ngilni pok tutishi kerak degan xulosa anglashiladi.

*Tamam aryuvan-teg qizil menzim erdi  
Bu kun zafaran uruyin ende tarittim  
Qizil yuzim mutlaq arg 'uvondek edi  
Bu kun unga za 'faron urug 'ini sepdim* [Каримов, 1971: 866].

Arg'uvon – yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan, bahorda ochiladigan qirmizi gulli daraxt. Shu daraxtning guliga o'xshash, qirmizi rang. [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2023: 148]. “Qip-qizil, to'q qizil” ma'nosini ifodalovchi forscha-tojikcha arg'uvon o'zlashmasi aynan “Qutadg'u bilig” da ilk bor ishlatilgani bilan xarakterlanadi. Shuningdek, sariq ma'nosini ifodalagan arabcha za'faron o'zlashmasini ham Yusuf Xos Hojib ilk bor qo'llagan. Ushbu baytda qizil va sariq ranglari bir-biriga zid qo'yilib, shaxsning holatini tasvirlab beradi. Qizil yuz – sog'lomlik, sariq yuz esa xastalikni ifodalab kelgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asaridagi fitonim asosli o'xshatishlar poetik tasvir vositasi bo'lishi bilan bir qatorda inson va borliq haqidagi bilimlarni o'zida aks ettiruvchi kognitiv-semantik birlik sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, insonning tashqi qiyofasi, xarakter-xususiyati, axloqiy fazilatlar hamda ma'naviy olamini yoritishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили а адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19 – 24.
2. Jalilova Z. Ingliz va o'zbek she'riyatida shaxs sifatlarining fitonimlar vositasida poetik ifodalanish xosliklari. Monografiya. – Toshkent:2023. – 151 b.
3. Каримов Қ. Қутадғу билиг. – Тошкент: Фан, 1971. – 963 б.
4. Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи. Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. – Фарғона, 2021. – 262 б.
5. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. фал. док (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 173 б.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. – 964 b.
7. Asadov, M. (2025, July). Homo poetikus konsepsiyasi: Navoiy va Rumiyy. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
8. MAVLYANOV, S. (2023). SEMANTIC CLASSIFICATION OF UZBEK DIPLOMATIC TERMS. *UZBEKISTAN: LANGUAGE AND CULTURE Учредители: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*, 4, 83-101.
9. MUHAMMADIYEVA, D. (2025). “BOBURNOMA” MATNI O'ZBEKCHA-TURKCHA-QOZOQCHA PARALLEL KORPUSINING TARJIMAGA ASOSLANGAN EKSTRALINGVISTIK VA INTRALINGVISTIK MA'LUMOTLAR BAZASI. «ACTA NUUZ», 1(1.12), 312-315.
10. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O'razova, I., & Rixsiyeva, K. (2022). O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent.
11. Shamsiyeva M. Bola nutqi rivojlanishining zamonaviynazariyalari. “Filologik ta'limni takomillashtirish muammolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. T.: “Mumtoz so'z” 2020.
12. Shukhrat, S. (2015). Mir Alisher Navoi and his Persian-language poetry. *European journal of literature and linguistics*, (2), 24-27.
13. Сирожиддинов, Ш., Юсупова, Д., & Давлатов, О. (2018). Навоийшунослик. Т: “Тамаддун.
14. Z Xolmanova. [TILNING MA'LUMOTLARNI SAQLASH VA YETKAZISH FUNKSIYASI](#). – Conferences, 2025
15. H M. [Eski türkçenin semantik özellikleri](#). Kırgızistan-Türkiye Manas Üniversitesi'nin ev sahipliğinde 17-20 Nisan 2018